

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**CONVERSION IN THE TOPONYMIC SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE****Dildora Sativoldiyeva***Senior Lecturer at Namangan State Pedagogical Institute**Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: proper noun, onomastic unit, appellative lexicon, conversion (lexical-semantic) method, onomastic conversion, word formation, toponym, toponym formation, toponymization.

Received: 16.10.25**Accepted:** 17.10.25**Published:** 18.10.25

Abstract: The article discusses the derivational distinction of proper nouns (onomastic units) from the appellative lexicon, their specific features, the conversion (lexical-semantic) method of word formation and formation within the appellative lexicon and the scientific interpretation of this method, onomastic conversion and its differences from the simple conversion method, the formation of toponyms in the Uzbek language by the conversion method, and the toponymization (toponymization) of appellatives based on evidence.

O‘ZBEK TILI TOPONIMIK TIZIMIDA KONVERSIYA**Dildora Sativoldiyeva***NamDPI katta o‘qituvchisi**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**Namangan, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: atoqli ot, onomastik birlik, apellyativ leksika, konversiya (leksik-semantik) usul, onomastik konversiya, so‘z yasalishi, toponim, toponim hosil bo‘lishi, toponimizatsiya (toponimlashuv).

Annotatsiya: Maqolada atoqli otlar (onomastik birliklar) ning apellyativ leksikadan derivatsion jihatdan farqlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari, apellyativ leksika doirasida so‘z yasash va hosil qilishning konversiya (leksik-semantik) usuli hamda mazkur usulning ilmiy talqini, onomastik konversiya va uning oddiy konversiya usulidan farqli jihatlari, o‘zbek tilida konversiya usulida toponimlar hosil bo‘lishi, apellyativlarning toponimizatsiyasi (toponimlashuvi) dalillar asosida yoritilgan.

КОНВЕРСИЯ В ТОПОНИМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Дильдора Сативолдиева

Старший преподаватель

Наманганского государственного педагогического института

Кандидат филологических наук (PhD)

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: имя собственное, ономастическая единица, апеллятивная лексика, конверсионный (лексико-семантический) метод, ономастическая конверсия, словообразование, топоним, топонимообразование, топонимизация.	Аннотация: В статье рассматриваются деривационное различие имен собственных (ономастических единиц) из апеллятивного лексикона, их специфические черты, конверсионный (лексико-семантический) способ словообразования и формирования в пределах апеллятивного лексикона и научная интерпретация этого способа, ономастическая конверсия и ее отличия от простого конверсионного способа, образование топонимов в узбекском языке конверсионным способом, топонимизация (топонимизация) апеллятивов на основе фактических данных.
---	---

Kirish. Tilning leksikasi, jumladan, apellyativ leksika va onomastik leksikasi doimo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, milliy-lisoniy omillar ta'sirida rivojlanib, taraqqiy etib boradai. Bunda so'z yasalishi eng faol jarayon hisoblanadi. Albatta, apellyativ leksik va onomastik leksikada ham yasalish jarayon amal qiladi, biroq leksikaning bu turlari derivatsion jihatdan mushtarak hamda farqli xususiyatlarga ega. Mazkur maqolada ana shunday jihatlardan biri – apellyativ va onomastik leksika doirasida faol qo'llanuvchi konversiya usuli xususida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Konversiya termini bilan ifodalangan bu tushuncha tilshunoslikda so'z yasalishining morfologik-sintaktik usuli (V.V.Vinogradov), transpozitsiya (Sh.Balli, H.Ne'matov, O.Kim), implitst so'z yasash (V.Fleyner), transilatsiya (L.Tener), nol morfemali derivatsiya (G.Morchand), noxususiy (nesobstvennaya) derivatsiya (N.A.Arutyunova), transformatsiya (V.G.Migrin) terminlari bilan turli xil nomlanadi. Bu masala T.H.Turdibekov tomonidan atroflicha tahlil qilingan [1:11]. Konversiya, bu keng ma'noda bir kategoriyaga xos ishora ramznig boshqa kategoriyaga o'tishidir [2:64]. Konversiya usulida apellyativlardan onomastik birliklar ham hosil qilish ham kuzatiladi. Bu onomastik birliklar hosil qilish xizmat qilishi bois onomastik konversiya deb ataladi. Uning bir turi toponimik konversiya bo'lib, bu rus tilshunosligida anchayin chuqur o'rganilgan [3:108-110].

Tahlillar va natijalar. Tilda so'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o'tishi to'xtovsiz bo'ladi, chunki so'z turkumlarining o'zi qat'iy chegara bilan ajralib turuvchi hodisa emas, tilning

doimiy harakati natijasida soʻzlar bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqa leksik-grammatik kategoriya tomon siljib, ularning vazifasini bajarishga moyillasha boradi [4:20]. Apellyativ leksika, ya'ni soʻz turkumlari doirasida bir turkumga mansub soʻzni boshqa turkumga oʻtishi natijasida yangi soʻz hosil qilish kuzatiladi va bu konversiya usuli deb ataladi.

Konversiya termini turli sohalarida qoʻllaniladi, ammo tilshunoslikda bu termin soʻz yasallishining turlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Konversiya soʻz yasallishiga oid adabiyotlarda hozirga qadar soʻz yasallishining leksik-semantik usuli yoki leksik-grammatik usuli deb ham yuritiladi.

Konversiya lugʻaviy birligi tarixiy-etimologik jihatdan lotincha *conversio* soʻzidan olingan boʻlib, aslida aylantirish; oʻzgartirish maʼnolarini anglatadi. Mazkur termin sohaga doir terminologik lugʻatda quyidagicha izohlanadi: “Konversiya (lot. *conversio* – aylanish, oʻzgarish). Soʻzning fonetik va morfologik jihatdan oʻzgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi, shu yoʻl bilan yangi soʻz hosil boʻlishi” [5:45]. Konversiya soʻzlarning turkumdan turkumga oʻtishi deb ham talqin etiladi.

Ilmiy manbalarda leksik-semantik usul konversiya deb yuritilmoqda. Haqiqatan, konversiya usuli mohiyatan soʻz yasallishining leksik-semantik usuliga toʻgʻri keladi.

Har bir tilda turdosh otlarga qarama-qarshi turuvchi atoqli otlar ham mavjud. Bunday birliklar leksikologiya nuqtai nazaridan apellyativ leksika va onomastik leksika yoki onomastik birliklar deb yuritiladi. Atoqli otlar (onomastik birliklar) leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, grammatik, yasallish va uslubiy hamda funksional xususiyatlariga koʻra apellyativ leksikadan farqlanadi. Ana shunday farqli lisoniy belgi-xususiyatlardan biri apellyativ leksikaning oʻz lisoniy materialiga egaligi, onomastik birliklarning esa mana shunday materialga ega emasligidir. Bu farqli lisoniy belgi onomastikaga doir ilmiy adabiyotlarda ham taʼkidlanadi.

Atoqli otlar yasallish jihatdan quyidagi oʻziga xos xususiyatlarga ega:

1. Atoqli otlar oʻz mustaqil lisoniy materialiga ega emas.
2. Atoqli otlar, asosan, tilda mavjud boʻlgan lisoniy material, ya'ni apellyativ leksika negizida yasalladi.
3. Atoqli otlarni yasashda til materialining maʼlum qismidagina foydalaniladi.

Shu jihatdan tilshunoslarning atoqli otlarning koʻpchiligi turdosh otlar, maʼlum qismi boshqa turkumga oid soʻzlar asosida paydo boʻladi, degan fikrlari asosli.

Ilmiy adabiyotlarda atoqli otlar, jumladan, toponimlar yasalmaydi, hosil qilinadi degan qarashlar bor. Albatta, bu fikrda ham maʼlum asos bor. Ayrim onomastik birliklar, jumladan, toponimik birliklar tildagi tayyor apellyativlardan, til leksikasida mavjud oʻz va oʻzlashma qatlamga mansub oddiy soʻzlar hamda boshqa onomastik birliklardan hosil qilinadi. Bu usul ham

konversiya, biroq bunda onomastik birliklar hosil qilingani uchun onomastik konversiya hisoblanadi.

Apellyativ leksikaning hyech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o'tishi onomastik konversiya yoki onomastik konversiya usuli deb ataladi [7:61].

Onomastik konversiya termini birinchi marta A.V.Superanskaya tomonidan taklif etilgan [5: 92-93]. Olimaning izohlashicha, onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hyech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir [5: 92-93].

Tildagi oddiy konversiyadan onomastik konversiya usulini farqlash lozim. Oddiy konversiya usulida apellyativlar apellyativlar, ya'ni bir turkumga mansub so'zdan boshqa turkumga mansub yangi so'z hosil qilinsa, onomastik konversiyada apellyativ leksik birlikdan atoqli ot, ya'ni onomastik birlik hosil qilinadi. Masalan, go'zal, obod (sifat) – Go'zal (daha, Namangan shahri), Obod (mahalla nomi, Andijon v. And. t.) kabi. pillakash (turdosh ot, kasb-hunar nomi) – Pillakash (And. v. And. t.), to'rg'ay (turdosh ot, qush nomi) – To'rg'ay (qishloq, Far. v. Furqat t.), dasht (turdosh ot,) – Dasht (mahalla, And. v. Izboskan t.) kabi.

Ayrim onomastikaga oid adabiyotlarda ham konversiya termini o'rnida tranonimizatsiya [6:152] termini ham qo'llangan. Atoqli otdan atoqli ot hosil bo'lishi onomastik terminologiyaga oid lug'atlarda konversiya va tranonimizatsiya deb ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, aynan bir til hodisasiga nisbatan ikki xil termin qo'llanadi. N.Uluqovning fikricha, turdosh otlardan hyech qanday o'zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitoonimlar hosil bo'lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot, ya'ni antroponimdan toponim, oykonimdan gidronim hosil bo'lishiga nisbatan tranonimizatsiya terminini qo'llash maqsadga muvofiq. Demak, tranonimizatsiya – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o'tishi [10,205]. Albatta, bu mulohazalar asosli, bu ikki hodisani mohiyati, ob'ekti, vazifasi nuqtai nazaridan farqlash lozim.

Tilda onomastik konversiya usulining qanday onomastik birlik hosil qilishga xizmat qilishiga ko'ra antroponimik konversiya, toponimik konversiya, gidronimik konversiya kabi turlari kuzatiladi.

Toponimlar konversiya (leksik-semantik), affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasaladi, hosil qilinadi, biroq toponimlar hosil bo'lishida onomastik konversiya muhim o'rin tutadi, faol qo'llanadi.

Topoasos (apellyativ)ning hyech qanday so'z yasovchi qo'shimchalar yordamisiz joy nomiga o'tish usuli toponimik konversiya hisoblanadi [7: 79]. Bu, ya'ni apellyativning o'z vazifasini o'zgartirib atoqli ot tizimiga o'tishi, joy nomiga aylanishi toponimlashuv // toponimizatsiya deb ham yuritiladi. Apellyativning atoqli otga, aniqrog'i, toponimga aylanishiga

ketgan vaqt va unda yuz beradigan lisoniy o'zgarishlar toponimik yoki toponimlashuv jarayoni hisoblanadi [7: 82].

Toponimik konversiya asosida hosil bo'lgan oykonimlarning ikki turini ajratish mumkin:

1. Tub sodda apellyativlardan konversiya usulida hosil bo'lgan toponimlar – qishloq nomlari: Ravot, Sohil, Haqiqat, Bog' (Yangi. t.), Istiqlol, Guzar (Chust t.), Baxt, Dasht (To'ra. t.) kabi.

2. Yasama so'zlardan konversiya usulida hosil bo'lgan toponimlar – qishloq, mahalla nomlari: Toshloq, Sohibkor (To'ra. t.), Do'stlik (Nor. t.), Yoshlik, O'rikzor (Koson. t.), Bunyodkor, Nurchi, Oromgoh (Nam. sh.), Anjirzor, Bodomzor (Nam.t.), Olmazor (Pop t.), Bog'iston (Chor., Yangi.t.), Guliston (Nam. sh., Pop, Uychi, Uchqo'r., Chust, Yangi.t.) kabi.

3. Qo'shma tarkibli so'zlardan konversiya usulida hosil bo'lgan toponimlar: Egartoshi, Novsiya (jilg'a – Nam. v. Chust t. G'ova q.), Chorgumbaz (ariq – Nam. v. Kosonsoy t.), Oqterak (ariq – Nam. v. Chortoq t. Peshqo'rg'on q.), Oqsuv (ariq – Nam. v. Chortoq t. Peshqo'rg'on q.) kabi.

Misollardan ko'rinadiki, toponimik konversiya usulida sodda tub, yasama va qo'shma so'zlardan toponimlar hosil qilinishi mumkin.

A.L.Xromovning fikricha, topoformantlar apellyativ leksikadan joy nomlari – toponimlar yasaydigan qo'shimchalar hisoblanadi. Topoformantlar – toponimik so'z yasash vositasi sifatida qo'llaniladigan qo'shimchalar yoki ularga teng bo'lgan yordamchi morfemalardir [8: 3-4]. Demak, topoformantlar toponimlar yasashga xoslangan qo'shimchalardir. Ular vositasida affiksatsiya usulida toponimlar yasaladi. O'zbek tili toponimiyasida -ak, , -gan, - g'on, -mon, -cha kabi topoformantlari kuzatiladi: Hisorak (Chust t.), Hovuzak, Rezak, Navzak (Pop t.), Bo'lanak (Chor.t.), Poromon (Yangi.t.), Porosmon (To'ra.t.), Pungon (Pop t.), Qandig'on (To'ra.t.), Naymancha (To'ra.t.) kabi. Bunday toponimlar affiksatsiya usuli mahsulidir.

Z.Do'simov ta'kidlab ko'rsatganidek, onomastik konversiya usulida toponim hosil qilinganda, leksema o'z vazifasini, sintaktik qurshovini o'zgartirish bilan birga, o'z paradigmasini ham o'zgartiradi. Toponimlarning hosil bo'lishini belgilashda ushbu jihatlarni e'tiborga olish, ayni paytda ularning morfologik tuzilishini belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbek tili toponimiyasida joylarning nomlanishida shu hududning joylashish o'rne, tabiiy sharoiti, tashqi ko'rinishi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, yer osti boyligi, mahalliy aholining kasb-kori, etnik kelib chiqishi, xo'jaligi va boshqa omillarga asoslaniladi.

O'zbek tilida toponimik konveriya, asosan, ot, sifat, fe'l kabi apellyativlar joy nomiga o'tishidan yuzaga keladi.

1. Ot apellyativlaridan konversiya usulida hosil bo'lgan toponimlar: Charxpalak (Namangan sh. Mustaqillikning besh yilligi MFY); Nasos (Namangan sh. Xalqlar do'stligi MFY);

Favvora (Chortoq t. Baynalminal MFY); Vatan (Pop t. Bog' ko'cha MFY); Vodiy (Yangiqo'rg'on t. MFY; Pop t. Vodiy MFY; Koson t. Soycha MFY; Namangan sh. Axsikent MFY; Namangan sh. Diyor MFY);

2. Sifat apellyativlaridan konversiya usulida hosil bo'lgan toponimlar: Obod (Pop t., Yakkatut MFY), Obodon (To'rg'onaqo'r t., MFY), Ozoda (Chortoq t., Qoramurt MFY); Go'zal (Namangan sh., MFY), So'lim (Chust t., Yuqori MFY), Ko'rkam (Uychi t., Istiqlol MFY), Xushmanzara (Namangan sh., Shishaki MFY);

3. Fe'l apellyativlari lug'aviy asos bo'lgan toponimlar: Birlashgan (Pop tumani, MFY), Ergashgan (Namangan t., Guzar MFY), O'zgarish (Mingbuloq t., MFY), Yuksalish (Chortoq t., Alixon MFY), Ulg'ayish (Namangan t., Farovon MFY), Yangilanish (Mingbuloq t., Mulkobod MFY).

Fe'l apellyativlarining konversiya usulida joy nomiga o'tishida, asosan, fe'lning -gan sifatdash va -sh/-ish harakat nomi shakllari asos vazifasini bajaradi. Birlashgan, o'zgarish, yuksalish, ulg'ayish, yangilanish apellyativlari mustaqillik yillaridan keyingi joylarga nom qilib qo'yilgan. Bu so'zlarning ma'nolarida ham joyning yaxshlanishga, yangilikka, yuksaklikka chorlov yashiringan.

Toponimikada ham onomastik konversiya usulida yasalgan joy nomlarida ham boshqa yasalgan so'zlar singari yasashga asos bo'lgan birlik (yasovchi) va yasaliş natijasida hosil bo'lgan birlik (yasalma) munosabati mavjuddir. Masalan, farovon (xususiyat bildiruvchi sifati) – yasovchi Farovon > (toponim – Chortoq t., Oraariq MFY) – yasalma; pahlavon (xususiyat bildiruvchi sifati) – yasovchi > Pahlavon (toponim – Namangan t., Urganch MFY) – yasalma; birlashgan (ish-harakat) – yasovchi Birlashgan > (toponim – Uychi t., MFY) – yasalma.

Toponimiyadagi konversiya usuli bilan affiksatsiya usulidagi yasalişni aralashtirish ko'p hollarda toponimlarning motivlarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Bu holatni turkologiyadagi, jumladan, o'zbek tilshunosligidagi toponimlar tadqiqiga oid ishlarda ham kuzatish mumkin. Chunonchi, Qoraqalpog'iston toponimlarini tekshirgan Q.Abdimuratov -li // -li qo'shimchasi orqali yasalgan toponimlar sifatida Ashamayli, Balg'ali, Kazayaqli, Cho'michli kabilarni, Turkmaniston toponimlarini o'rgangan S.Ataniyazov esa -chi, -li qo'shimchasi orqali yasalgan nomlar qatorida Arabachi, Avchi, Yilanli, Sayatli toponimlarini keltiradi. Z.Do'simov to'g'ri ta'kidlaganidek, mazkur toponimlarda bolg'a, cho'mich, kazayaq, araba, yilan so'zlari motivlovchi emas, balki toponimlarning motivlari bolg'ali, kazayaqli, cho'michli, yilonli etnonimlaridir [9: 42-43]. Demak, mazkur toponimlar onomastik konversiya mahsulidir.

Toponimik konversiya usulida nomlar hosil qilinganda tildagi ma'lum bir so'zlarga ishtirok etishi kuzatiladi. Konversiya usulida ko'proq gidronimik indikatorlar va o'simlik, daraxt nomlarini ifodalovchi apellyativlar hech qanday grammatik vositalarsiz suv ob'ekti nomiga o'tadi

[10]. Masalan, Damba (ariq – Nam. v. Uchqo‘rg‘on t. Yangier q.), Zakan (ariq – Nam. v. Uchqo‘rg‘on t. Qo‘g‘ay q.), Buloq (Nam. v. Pop t.), Qoq (Far. v. Far.t.), Jo‘ga (ariq – And. v. Asaka t.), Kanda (ariq – And. v. Izboskan t.) kabi.

Xulosa. Tahlillardan ko‘rinadiki, onomastik birliklar, jumladan, toponimlar, asosan, tilning apellyativ leksik birliklar va ularga xos yasovchi vositalar, usullar, modellar negizida yasaladi hamda hosil qilinadi. Toponim va uning turlari ham, asosan, onomastik konversiyaning toponimizatsiya (toponimlashuv) usulida ot, sifat, fe'l apellyativlardan hosil qilinadi. Bu tilning sistemaliligi, apellyativ va onomastik leksikaning uzviy bog‘liqligi, aloqadorligi, onomastik birliklarning o‘ziga xos derivatsion xususiyatlarga egaligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Турдибеков Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.
2. Кубрякова Е. Деривация, транспозиция, конверсия // ВЯ, 1974. – № 5. – С. 64-66.
3. Несина Г.Н. Метафора и метонимия в топонимических названиях. Научные труды. – Курск, 1977. – 175 с.
4. Грамматика русского языка. – М., 1953. – С. 20.
5. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 166 б.
6. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М.: Наука, 1969. – С. 92-93.
7. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.
8. Хромов А. Л. Очерки по топонимии и микропонимии Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 1975.
9. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
10. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.